

An'analar bardavom

Ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokorlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlaridir. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos mehnat qiladi. Ustoz shogirdinig zimiston dunyosini ilm quyoshining mo'jizakor ziyosi bilan munavvar etadi. Ustozlar ma'naviyat osmonida musaffo ziyo taratib turgan yo'ichi yulduzdirlar, ular tufayli odamlar to'g'ri yo'lni topadilar, ularning sharofati bilan jaholat zulmatlaridan yorug'likka yetishadilar.



Avval xabar berganimizdek Gidromelioratsiya fakultetining "Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasiga qarashli "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish" ta'lif yo'nalishi 307-guruh faol talabalari guruh murabbiyi boshchiligidagi o'quvchilar uchun qiziqarli ochiq darslar tashkil etish maqsadida maktablarga tashrif uyushtirishni boshlab, kelgusida bu faoliyatni an'anaga aylantirishga kelishib olgandilar.



16-mart kuni 84-umumiy o'rta ta'lif maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun galdeg'i ochiq dars tashkil etildi. O'tkazilgan ochiq dars o'quvchilar tomonidan tanlangan "Yerda suvning paydo bo'lishi" mavzusida bo'lib o'tdi. Mavzuni faol talabalar o'zlari tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar asosida tushuntirib, mavzuga doir rasmlar, videoroliklar va multfilmlar asosida ohib berdilar. Guruh murabbiyi Sanobar Do'stnazarova mavzu yuzasidan umumi yuldasalar berib, o'quvchilarning tashkil etib kelinayotgan ochiq darslar haqida fikrlari bilan qiziqdi. Kelgusida bo'lib o'tadigan darsga qadar o'quvchilar o'zlarining suvni tejashga qo'shgan xissalarini sinfning maxsus daftariiga yozib borishlariga va eng faol o'quvchilar rag'batlantirilishiga kelishib olindi.



Talabalar tomonidan o'quvchilar uchun sovg'a tariqasida olib borilgan kitoblar jamlanmasi sinf kutubxonasi topshirildi. Dars yakunida esa maktabning ma'naviy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rahbariyati va professor-o'qituvchilar jamoasiga atalgan maktab direktori va ota-onalar kengashining maxsus Tashakkurnomasini talabalarga topshirdi. Kelgusida institut va maktab o'rtasidagi ushbu hamkorlik bardavomligini yanada mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning ham institutga tashrifini tashkil etish rejalashtirildi.

**Gidromelioratsiya fakulteti 307-guruh talabasi Azizbek Hasanov axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**